

MIRZACHO‘L TABIIY GEOGRAFIK OKRUGI YER USTI TUZILISHINI O‘RGANISH

Homroqulov Husan Hikmatulla o‘g‘li

Urganch davlat universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mirzacho‘l tabiiy geografik okrugining yer usti tuzilishini va uning qishloq xo‘jaligini rivojlantirishdagi ahamiyati shuningdek, boshqa geografik xususiyatlari haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: o‘lka, okrug, sho‘rxoklar, sizot suvlar, asosiy suv manbalari, sovxozlar, “Bosh mirzacho‘l qurilish statistika”, genetik qatlam, erroziya.

Аннотация: В данной статье приведены сведения о строении поверхности Мирзачельского природно-географического района и его значении в развитии сельского хозяйства, а также о других географических особенностях.

Ключевые слова: страна, район, солончаки, фильтрационные воды, магистральные источники воды, совхозы, «Бош Мирзачол строительная статистика», генетический слой, эрозия.

Abstract: This article provides information about the surface structure of the Mirzachol natural geographical district and its importance in the development of agriculture, as well as other geographical features.

Key words: country, district, salt marshes, seepage waters, main water sources, state farms, "bosh Mirzachol construction statistics", genetic layer, erosion.

Kirish: Geograf K.Z.Zokirov O‘zbekiston Respublikasi tuproqlarini mintaqaga ajratishda tabiiy sharoitlarni – iqlim, tuproq qoplami, o‘simlik va hayvonat olamini asosiy omil sifatida olib, cho‘l, adir, tog‘ va yaylov mintaqalarga ajratgan. Mirzacho‘lning qumli tuproqlarida gumus miqdori juda kam (0.3 – 0.6% ni) va ayrim gilli joylarda esa 0.5 – 1 % ni tashkil qiladi. Bundan tashqari och va bo‘z tuproqlar, sug‘orma och bo‘z va bo‘z – o‘tloq tuproqlar mavjud. Mirzacho‘lning tog‘ yonbag‘irlarida to‘q bo‘z va jigarrang tuproqlar tarqalgan. Mirzacho‘lning iqlimi quruq kontinental, o‘rtacha yillik temperatura shimolda 12.5, janubda 150C ga yetadi. Yozi juda issiq +40+50 0C gacha, qishda esa sovuq – 4 0C gacha ayrim joylarida – 30 – 350C gacha pasayishi ham mumkin. Yillik yog‘in miqdori 200-300 mm, yoz kunlari suvning bug‘lanishi esa 1000 – 1200 mm bo‘lib, yog‘in miqdoridan 4 – 4.5 marta ko‘p. Sizot suvlari yerning yuza qatlamiga yaqinligi

sababli Mirzacho‘lning tuproqlari sho‘rxok, sho‘rtob, och bo‘z daryo vodiysida allyuvial – o‘tloqi, o‘tloqi tuproqlar tarqalgan. Bu okrugda shamolning tezligi 12 – 15 m/sek, bazida 46 m/sek ga yetishi mumkin. Bunday kuchli shamol tufayli tuproq erroziyalari va sho‘rlanish, suv bug‘latish ko‘p miqdorda bo‘ladi. Shamol ta‘sirida turli xil kattalikdagi qum barhanlari ham hosil bo‘ladi. Mirzacho‘lning ayrim joylari tuproqlari juda sho‘rlangan va sizot suvlari joylashgan chuqurligi tuproq yuza sathiga yaqin bo‘lganligi sababli meliorativ tadbirlar qo‘llaniladi.

Asosiy qism: Uning sho‘rlanmagan tuproqlarida oqquray, kovrak, qizil burgan, sho‘rlangan tuproqlarda esa yulg‘un, sho‘rxoklarda ajriq, kurmak kabilar o‘sadi. Mirzacho‘l okrugining asosiy suv manbai Sirdaryo hisoblanadi. Okrugning ayrim hududlari qor suvi bilan to‘yinadi. Bu hududlarda yozda suv ko‘p, qishda kam bo‘ladi. Shu sababli daryo suvini tartibga solib turish maqsadida sig‘imi 100 mln.m³ bo‘lgan Jizzax shaxri yaqinida Jizzax suv ombori qurildi. Bu okrugda Achchiqsoy, Zominsuv, Rovatsoy kabi soylari mavjud bo‘lib, ularda bahor oylari suv bir muncha ko‘p, yoz oylari esa birmuncha kam miqdorda bo‘ladi. Mirzacho‘lda gurund suvlari siljishi qiyin va yuza 1 – 5 m chuqurlikda joylashganligi sababli ayrim hududlardagi suvlar sho‘r, ichishga yaroqsiz. Tekislikning Aydar – Arnasoy ko‘li (O‘zbekistonning eng yirik ko‘l tizimi) tomon gurunt suvi chuqurligi 0.5 – 1.0 m ga yaqin bo‘lib, o‘ta sho‘rlangan. Okrugning tekislik qismida 200 – 300 m da chuchuk suv, 1500 – 3000 m chuqurlikda mineral termik suv qatlami borligi aniqlangan. XIX asrning 95-yillarida Mirzacho‘lda uzunligi 84 km bo‘lgan kanal qazilgan va sug‘oriladigan yerlar 76 ming gektar (ga) ga yetgan. 1910 – 1914 yillarda sug‘oriladigan yerlar miqdori 95 ming ga bo‘lgan, keyinchalik bu maydonning 60 ming ga sho‘rlanish va botqoqliklar hosil bo‘lishi tufayli yaroqsiz holga kelgan. O‘tgan asrning 30 – yillarida Mirzacho‘lga O‘zbekiston aholisining zich bo‘lgan qatlamlaridan yangi oilalar ko‘chirib keltirilgan va sovxozlar, yirik qishloqlar tashkil qilingan. 1939 – 40- yillarda sho‘rlangan, botqoq hosil bo‘lgan 60 ming ga yerlar qayta o‘zlashtirildi. Ikkinchi jahon urushi tugagach sovetlar mamlakatlarni iqtisodiyotini “bir tomonlama rivojlantirish” to‘g‘risida qaror qabul qildi. O‘zbekiston iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida paxta yakka hokimligi ya‘ni asosi paxta bazasiga aylantirish ittifoq hukumdorlarining asosiy maqsadiga aylangan edi. 50 – yillardan boshlab markaz buyrug‘i bilan aholining mehnatga layoqatli barcha qismini e‘tibori taqir va bo‘z yerlarni o‘zlashtirishga qaratildi. 1956-yilda “Boshmirzacho‘l qurilish” tashkiloti tuzildi va sug‘oriladigan yerlar 205,5 ming ga yetdi. 1956–1965-yillarda 84 ming ga yerlar o‘zlashtirildi. 16 ta paxtachilikka

ixtisoslashgan, bitta bog'dorchilik, uzumchilikka ixtisoslashtirilgan sovxozlar tashkil 80 qilindi. Mirzacho'l yerlarini sug'orish va melerativ holatlari yaxshilandi va janubiy Mirzacho'l kanali qurildi. Hozirgi kunda aholi soning tobora ortib borishi tufayli ularning ehtiyojlari ham (oziq – ovqat, uy – joy va boshqalar) ortib bormoqda. Statistika bo'yicha O'zbekiston aholisi soni 2020 yil boshida 131.6 ming kishiga o'sgan. Aholi sonining bunday ko'lamda ortishi tufayli ularni ehtiyojlarini qondirish maqsadida yangi va nazoratdan chiqqan yerlar o'zlashtirilmoqda. Mirzacho'lning qumli cho'l tuproqlarida ham keng miqyosda o'zlashtirish ishlari olib borilmoqda. Mirzacho'l tabiiy o'lkasi voha landshaftlari qadimdan Sirdaryoning qadimgi qayir usti terrasalari, Turkiston va Nurota tizmalaridan oqib tushuvchi doimiy va Vaqtincha oqar suvlar olib kelib yotqizgan yotqiziqlaridan hosil bo'lgan konus yoyilmalarida vujudga kelgan. Mirzacho'l tabiiy geografik o'lkasi landshaftlarining shakllanishida ishtirok etuvchi omillardan biri uning relyefi. Hududning relyefi o'ziga xos bo'lib, shimoliy tomondan orografik jihatdan ochiq, janubiy tomondan tog' tizmalari bilan to'silgan. Yer yuzasining bunday orografik tuzilishi o'z o'rnida hudud iqlimining shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Shimoldan kelayotgan havo massalarining janubdagi tog'larning to'sib qolishi tufayli bir nechta doimiy vaqtincha oqar suvlar - daryo va soylarning vujudga kelishiga zamin yaratgan. Bu soylarning tekislikka chiqaverish qismida qadimdan vujudga kelgan va daryo va soylarning tekis shakllangan prolyuvial ulangan prolyuvial tekisliklar - konus yoyilmalarida Zomin, Jizzax kabi vohalar ham vujudga kelgan. Tog' oldi prolyuvial tekisliklar geomorfologik jihatdan murakkab tuzilgan bo'lib, uning tuzilishi bir-biridan keskin farq qiluvchi ikki xil relyef shakli kompleksidan tarkib topgan. Birinchi relyef shakli qiyaligi bir xil yo'nalishda tog' tagidan tekislik yoki vodiy tomon asta-sekin pasayib boradigan prolyuvial tekislik-lardan tashkil topgan. Ikkinchi tipdagi relyef shakli majmuasi esa daryo va soylar tog-adirlardan chiqqan joylarda yarim doira shaklda yelpig'ichsimon taralgan va qabariqsimon ko'rinishga ega bo'lgan qiyalik hosil qilib, yuqoridan atrofga tomon pasayib boradigan konussimon yoyilmalardan iborat. Irrigatsiya to'ri bunyod etilishi va uning texnik holatini yaxshilash bilan birgalikda yangi yerlarni qishloq xo'jalik oborotiga kiritish bo'yicha ham ishlar olib borilgan. Natijada, eskidan sug'oriladigan Kirov nomli magistral kanal zonasida 1956-yilga kelib sug'oriladigan yerlar maydoni 206 ming gektarga yetkazilgan. Shu tariqa 40 yil davomida Mirzacho'l tabiiy geografik o'lkasida irrigatsion jihatdan 172 ming ga yerlar o'zlashtirilgan. 1956-yil avgustida

Mirzacho‘l tabiiy o‘lkasida eskidan sug‘oriladigan zonasida 300 ming ga qo‘riq yerlarni sug‘orish va xo‘jalikda o‘zlashtirish hamda meliorativ ishlarni olib borish to‘g‘risidagi hukumat qarori qabul qilinadi. Shundan 200 ming gektari Mirzacho‘lning O‘zbekistondagi qismiga to‘g‘ri keladi. Mirzacho‘lning eskidan sug‘orilib kelinayotgan hududi asosan allyuvial yotqiziqlar bilan murakkablashgan qismini o‘z ichiga oladi. Uning litologik tuzilishi hamda gidrogeologik sharoiti o‘zlashtirish va melioratsiya uchun qulay, chunki uning tabiiy drenaji asosan prolyuvial kelib chiqishga ega bo‘lgan, yaxshi drenajga egaligi bilan xarakterlanadigan yangidan o‘zlashtirilgan qismiga qaraganda ancha yaxshi hisoblanadi. Shunga ko‘ra yangi o‘zlashtirilgan yerlarning o‘zlashtirishda ancha qiyin bo‘lib ko‘rinadi Mirzacho‘l tabiiy o‘lkasining qo‘riq yerlarini o‘zlashtirish bo‘yicha ulkan tashkilotchilik ishlarni unga qiziqishi bo‘lgan respublikalar tomonidan olib borildi. 1975-yil oxiriga kelib Mirzacho‘l tabiiy o‘lkasida irrigatsiya jihatdan o‘zlashtirilgan 300 ming ga qo‘riq yerlar o‘zlashtirilgan bo‘lib, bu yerlarda 60 dan ortiq manzilgohlar barpo etilgan yuqori mexanizatsiyalashtirilgan davlat xo‘jaliklari tuzildi. Mirzacho‘l tabiiy geografik o‘lkasida qo‘riq yerlarni o‘zlashtirish bo‘yicha tajribalar V.V.Poslavskaya (1969), E.I.Ozerskiy (1967, 1971, 1973), V.A Duxovniy (1973), N.R.Hamraev (1973) va boshqalarning ishlarida yaxshi yoritilgan. Ushbu tajribalar katta ahamiyatga ega va boshqa irrigatsion o‘zlashtirish ob‘ektlariga tarqalishiga xizmat qiladi. Tajribalardan Qarshi va Jizzax cho‘llarini loyihalashda samarali foydalanildi va irrigatsiya-melioratsiya tizimlarini qurishda va yerlarni o‘zlashtirishda foydalanildi [4: 16 b]. Mirzacho‘l tabiiy o‘lkasi hududida sug‘orish natijasida quyidagi tuproq tiplari shakllangan: 1) ariq va kanallar bo‘yidagi qumli va qumoq irrigatsion yotqiziqlar bilan aralashib ketgan tuproqlar; 2) qadimdan sug‘oriladigan oddiy tuproqlar; 3) oddiy voha tuproqlari; 4) qadimgi sug‘oriladigan o‘tloq voha tuproqlari; 5) voha o‘tloq tuproqlari; 6) voha o‘tloq-botqoq tuproqlari; 7) voha botqoq tuproqlar; 8) ikkilamchi sho‘rlangan tuproqlar. Vohalarning asosiy tarkibiy qismini agrolandshaftlar tashkil etadi. Mirzacho‘l tabiiy o‘lkasi hududida ham agrolandshaftlarning qadimdan vujudga kelishida Sangzor, Zominsuy daryolari hamda tog‘lardan oqib tushuvchi mavsumiy oqar suvlarning roli muhim hisoblanadi. Mirzacho‘l tabiiy o‘lkasining qadimgi cho‘l qismini o‘zlashtirish uning shimoliy va shimoli-sharqiy qismidagi Sirdaryoning qadimgi qayir usti terrasalari o‘zlashtirila boshlangan. XX asrning 50-yillaridan so‘ng paxta maydonlarini kengaytirish maqsadida yerlarni o‘zlashtirish shimoli-g‘arbga tomon davom ettirildi. Sirdaryodan suv oluvchi Mirzacho‘l kanali ishga tushirilib, uning

tarmoqlari va bir qancha irrigatsion texnik inshootlar bilan jihozlangan antropogen gidrografik to‘r vujudga keltirildi. Aholi turar joylari, yo‘llar, transport-kommunikatsiya tizimlari vujudga keltirildi. Mirzacho‘l tabiiy o‘lkasining barcha sug‘oriladigan hududlarida sug‘orish inshootlarining ko‘payishi voha landshaftlari tarkibi va ko‘lamining o‘zgarishiga sabab bo‘ldi. Bu o‘zgarishlar o‘z navbatida ilgari cho‘lning landshaft-ekologik sharoitiga katta ta‘sir ko‘rsatdi. Sug‘oriladigan maydonlarda tabiiy o‘simliklar, tuproq tarkibidagi mikroorganizmlarning faoliyati, tuproqlarning morfologik, fizik, kimyoviy va biologik xossalari o‘zgardi, eng muhimi voha landshaftlarining tabiiy sharoiti optimallashtirildi. Mirzacho‘l tabiiy o‘lkasi yer resurslaridan samarali foydalanish eng avvalo tuproqlarning meliorativ holatiga bevosita bog‘liq. Tabiiy geografik rayoni hududidagi sug‘oriladigan yerlarning ko‘p qismi turli darajada sho‘rlangan va sho‘rlanmoqda. Bu esa o‘z navbatida joyning turli komponentlari - relyefi, yer usti va yer osti suvlari harakati, iqlim, tuproqning tarkibi hamda sug‘orish inshootlarining holati, sug‘orish madaniyati va boshqa bir qancha antropogen omillarga bevosita bog‘liq. Hozirgi kunda Mirzacho‘l tabiiy geografik o‘lkasi tuproqlari meliorativ holati, sizot suvlari sathi, sho‘rlanish darajasi, tuproq bonitirovkasi, yer kadastri bilan respublikamiz va viloyatlardagi tegishli ilmiy tashkilotlar o‘rganishib, olingan natijalar tahlil qilinmoqda. Mirzacho‘l tabiiy geografik o‘lkasining yer resurslarini o‘rganish borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarida hududning sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatida kuzatilayotgan o‘zgarishlarni baholash va ularni kartalashtirish masalalariga qaratiladi. Yer resurslarini tadqiq qilish, ularni o‘rta va yirik masshtabli kartalashtirish, tasniflash, shakllanish tarixini o‘rganish, dinamik rivojlanishini kuzatish ilmiy va amaliy jihatda muhim ahamiyatga ega. Mirzacho‘l tabiiy geografik o‘lkasida qishloq xo‘jalik ekin turlarini yer resurslari tiplariga moslashtirib joylashtirish, hosildorlik darajasining oshishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Irrigatsiya inshootlari yirik suv havzalari sifatida atrof-muhit mikroiklimining o‘zgarishi va ekologik sharoiti o‘zgargan hududlarning ko‘lam jihatdan kengayishiga sabab bo‘ladi. Bunday irrigatsiya inshootlari inson va jamiyat manfaatlariga xizmat qilsada, ular uchun turli xil ekologik muammolarni yuzaga keltirishi mumkin. Suv soviganda o‘zidan havoga ancha miqdorda issiqlik chiqaradi, suv havodan isiganda esa undan ko‘p miqdorda issiqlik oladi. Bir sm kub suv 1°C soviganda chiqqan issiqlik 3134 sm kub havoni 1°C ga isitadi. Umuman suvning, jumladan yirik suv havzalarining mikroiklimga nihoyatda kuchli ta‘sir etishining sababi ana shundadir. Suv issiqlik sig‘imining kattaligi, sekin isib sekin sovishi

natijasida Mirzacho‘l tabiiy o‘lkasining yirik suv havzalari yaqinida harorat yozda odatdagidan pastroq (2-3°C), qishda esa biroz yuqoriroq (3-5°C) bo‘lishi kuzatiladi. Mirzacho‘l tabiiy o‘lkasi qurg‘oqchil iqlimga ega bo‘lganligidan yer yuzasidan 2000 mm atrofida. Havoda suv bug‘larining ko‘payishi o‘z navbatida nisbiy namlikni 10-15 % ga ortishiga olib keladi. Bu esa qish va bahor oylarida tumanli kunlarning cho‘zilishiga sabab bo‘ladi (40 kun va undan ortiq) Bundan tashqari tabiiy geografik rayonning tekislik qismida yarim asrdan ortiq intensiv sug‘orishdan foydalanish hamda ochiq va yopiq drenaj tizimlarining to‘la ishlamasligi yer osti suvlarining sathining ko‘tarilishiga, oqibatda tuproqlarning jadal sho‘rlanishiga olib keladi. Mirzacho‘l tabiiy geografik rayoni gidrotexnik inshootlarning atrof-muhitga ta‘sirini hamda ekologik sharoiti o‘zgargan hududlar muammosini hal qilish ularni to‘la va chuqur, ilmiy asoslangan tarzda tadrijiy ravishda monitoring tahlillarini o‘tkazish lozimdir. Mirzacho‘l tabiiy geografik rayonida sug‘oriladigan maydonlarda yer osti suvlarni ma‘lum bir sathda ushlab turish maqsadida ko‘plab kollektorzovurlar qazilgan.

Xulosa: Qumli tuproqlarni haydash va sug‘orish natijasida tuproqning yuza chim qatlam suvi bilan kelgan har xil keltirilmalar bilan aralashib 30 sm li gumus qatlamni hosil qiladi. Yangi o‘zlashtirilgan bunday tuproqlarga dastlab paxta, beda, g‘alla va boshqa mahsulotlar yetishtiriladi. Demak, Mirzacho‘l tabiiy okrugi iqlimi, sizot suvlari joylashuviga qarab turli meliorativ choralar qo‘llash, yangi o‘zlashtirilgan yerlarni strukturasi buzilmasligini nazorat ostiga olish lozim. Bunday yerlar sho‘rlanish va erroziyaga moyil bo‘lganligi uchun dastlab daraxt va butalar ekish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Erroziyani oldini olish maqsadida ixotazorlarni (7 qatorli: dastlaki 2 qatorga uzun bo‘yli daraxtlar terak, mirzaterak, keyin 5 qator qilib mevali daraxtlar ekiluvchi maydon) tashkil qilish, sho‘rlanishni oldini oluvchi va sho‘rlangan yerlarda o‘sadigan o‘simliklarni keng miqyosda ekilishi lozim. Bunday chora – tadbirlar sho‘rlangan va nazoratdan chiqqan yerlarni yana unumdor qatlarga aylanishiga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. G‘ofurova L., Abdullayev S., Nomozov X. Meleorativ tuproqshunoslik. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” T 2003.
2. Namozov X., Toshpo‘latov S., Ro‘zmetov M. Mirzacho‘l hududi sug‘oriladigan tuproqlarining meliorativ holati va unumdorligini oshirish yo‘llari. -Toshkent: “O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi”-2004.

3. S.A.Abdullaev, X.Q.Namozov Tuproq melioratsiyasi va gidrologiyasi Toshkent – “Fan va texnologiya” – 2018. 13-14,186
4. X.Q. Nomozov, Sh.M. Turdimetov “O‘zbekiston tuproqlari va ularning evolyutsiyasi”. Toshkent 2016. 53-69 b
5. Рафиқов А. Географик прогнозлаштириш асослари. -Т: 2003 47-51
6. Go‘dalov, M. R. (2014). Nature of Jizzakh region and its protection.-Т.:“ Science and technology.
7. Gudalov M. Foundation of Aydar-Arnasay lakes system and their effects on the environmental landscape. Nature and Science. Volume 17, Number 11 November 25, 2019 USA New York.
8. Sharipov Sh, Gudalov M, Shomurodova Sh. Geologic situation in the Aydar-Arnasay colony and its atropy. Journal of Critical Reviews. Volume 7, Issue 3, 2020 Maleziya KualaLumpur.
9. Sharipov Sh, Shomurodova Sh, Gudalov M. The use of the mountain kars in the tourism sphere in cort and recreation zone of Chimgan-Charvak. Journal of Critical Reviews. Volume 7, Issue 3, 2020 Maleziya Kuala-Lumpur.
10. Mukhamedov, O. L., & Gudalov, M. R. (2021). Territorial Location Of Settlements Of

Research Science and Innovation House